XALQ DEPUTATLARI MINGBULOQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 28 - dekabr VI-66-104-6-81-K/23 Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati Mingbuloq tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O’zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O’RQ-886-son Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27-dekabrdagi 01-14/20-01-32/805/1-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Mingbuloq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O’RQ-886-son Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-son qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida” 2023-yil 27-dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga muvofiq, Namangan viloyati Mingbuloq tumani mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari 47 mlrd. 909 mln. 531.0 ming so’m, xarajatlari 178 mlrd. 130 mln. 684.0 ming so’m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 130 mlrd. 221 mln. 153.0 ming so’m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun Mingbuloq tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil uchun viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024 yil uchun Mingbuloq tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024 yil uchun Mingbuloq tuman byudjeti zaxira jamg’armasi hajmlari 1 mlrd. 584 mln. 574,0 ming so’m miqdorida belgilansin.

8. 2024 yil uchun Mingbuloq tuman byudjeti shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag’larining yo’l qo’yiladigan eng kam miqdori 650 mln. 649.0 ming so’mga belgilansin.

9. O’zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024 yilda xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag’lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo’yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar byudjetiga to’liq hajmda o’tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig’i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to’g’risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to’lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to’lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo’yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to’liq hajmda o’tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan er solig’i;

yuridik shaxslarning foyda solig’i;

elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat daromadiga o’tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

davlat aktivlarinisotishdan tushumlar;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig’i bo’yicha tushumlar, tegishincha o’tgan moliya yilining
1 iyul holatiga ko’ra O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan viloyat aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo’yicha prognozning bajarilmagan qismi viloyat byudjetiga respublika byudjeti mablag’lari hisobidan qoplanadi.

v) viloyat byudjeti hamda Mingbuloq tuman byudjeti o’rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i.

jarimalar;

yig’imlar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

benzinni, dizel yoqilg’isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig’i;

aylanmadan olinadigan soliq.

10. Mingbuloq tuman hokimining birinchi o’rinbosari (J.Fayzimuhammedov), Iqtisodiyot va moliya bo’limi (Z.Jurabaev), Soliq inspektsiyasi (J.Anvarov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetiprognoz ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Mingbuloq tuman soliq inspektsiyasi (J.Anvarov) O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to’liq va to’g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o’z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

er solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo’yicha doimiy tahlililar o’tkazgan holda, soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to’lovlari bo’yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rish;

aylanmadan soliq turi bo’yicha soliq to’lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o’rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o’tkazish;

Bunda, mazkur yo’nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali er va mol-mulk solig’ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

12. Mingbuloq tuman hokimining birinchi o’rinbosari (J.Fayzimuhammedov), Iqtisodiyot va moliya bo’limi (Z.Jurabaev):

Mingbuloq tuman byudjetiga ajratilgan mablag’lardan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo’shimcha manbalarning kamida
30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda, Mingbuloq tumani xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo’limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro’yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

13. Mazkur qaror “Mingbuloq” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Mingbuloq tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va Mingbuloq tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси **Н.Худойбердиев**

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-66-104-6-81-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun Mingbuloq tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

T/r	Daromad turlari	Summa (ming so’mda)
1	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 207 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig’i	10 313 000
3	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 355 081
4	Qurilish materiallari bo’yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	20 000
5	Korxonalar aylanmasidan soliq	2 034 000
6	Jarimalar	961 800
7	Yig’imlar	2 902 404
8	Davlat mulki bo’yicha ijara to’lovlari	119 454
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	18 996 792
	JAMI	**47 909 531**

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-66-104-6-81-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Namangan viloyatining viloyat byudjetidan Mingbuloq tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori

ming so’mda

T/r	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori	shundan, aktsiz solig’i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag’lar*
1	130 221 153,00	23 178 887,00

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig’i bo’yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag’lar.

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-66-104-6-81-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Mingbuloq tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning cheklangan miqdori

T/r	Byudjet mablag’lari taqsimlovchilar	Summa (ming so’mda)
Tuman byudjetidan ajratiladigan mablag’lar jami		**178 130 684,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	158 457 393,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	0
	tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg’armasi	1 584 574,00
	Tashabbusli byudjet jamg’armasi	18 088 717,00
1	**Mingbuloq tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo’limi**	**40 260 785,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	40 260 785,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
2	**Mingbuloq tuman Tibbiyot birlashmasi**	**68 372 940,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	68 372 940,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
3	**Mingbuloq tuman Madaniyat bo’limi**	**4 190 109,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 190 109,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
4	**Mingbuloq tuman Yoshlar siyosati va sport bo’limi**	**7 181 191,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 181 191,00

	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
5	**Mingbuloq tuman Qishloq xo’jaligi muassasalari**	**1 877 150,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 877 150,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
6	**Mingbuloq tuman Irrigatsiya bo’limi**	**2 614 248,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 614 248,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
7	**Mingbuloq tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo’limi**	**4 478 820,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 478 820,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
8	**Mingbuloq tuman Iqtisodiyot va moliya bo’limi**	**1 546 233,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 546 233,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
9	**Mingbuloq tuman Soliq inspektsiyasi**	**4 584 720,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 584 720,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
10	**Mingbuloq tuman hokimligi** *(Obodonlashtirish boshqarmasi hamda Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi muassasalar)*	**43 024 488,00**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 351 197,00
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg’armasi	1 584 574,00

	Tashabbusli byudjet jamg’armasi	18 088 717,00
11	**Мингбулоқ туман ҳокимлиги** ***(Ободонлаштириш бошқармаси ҳамда Президенти Администрацияси ҳузуридаги муассасалар)***	**43 024 488,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	23 351 197,0
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	
	туман маҳаллий бюджети захира жамғармаси	1 584 574,0
	Ташаббусли бюджет жамғармаси	18 088 717,0

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-66-104-6-81-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024 yil uchun Namangan viloyatining viloyat va Mingbuloq tuman mahalliy byudjeti o’rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to’lovlar, shuningdek soliq bo’lmagan to’lovlar

T/r	Soliqlar va to’lovlar turlari	Ajratmalar normativlari (foiz hisobida)	
		Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	100%
2	Jismoniy shaxslar er solig’i	100%	0%
3	Yuridik shaxslar er solig’i	0%	100%
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg’isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig’i	0%	100%
5	Korxonalar aylanmasidan soliq	100%	0%
6	Davlat boji	0%	100%
7	Jarimalar	30%	70%
8	Yig’imlar	100%	0%
9	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0%	100%
10	Davlat mulki bo’yicha ijara to’lovlari	100%	0%
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	45%	55%
12	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar	0%	100%
13	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i	0%	100%